

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur uzluksiz tibbiy va farmasevtik ta'lim muvofiqlashtiruvchi kengashning 2024 yil 6 iyuldagi №_MMO-672-2024 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan.

Amal qilish muddati 2026 yil gacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi			
Kafedra/ bo'lim	Bolalik davri asab kasalliklari			
O'quv dastur nomi	“ Epilepsiya va paroksizmal xolatlar ”			
O'qish turi	Mavzuiy malaka oshirish			
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Shamansurov Sh.Sh., Gulyamova M.K., Saidazizova Sh.X., Gulyamova D.N.			
Siklning umumiy soati	144 kredit			
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar				
				
t.f.d., professor Shamansurov Sh.Sh.	t.f.n, dotsent Gulyamova M.K.	t.f.d., dotsent Saidazizova Sh.X.	t.f.n., dotsent Gulyamova D.N.	Assistent Ziyamuxamedova N.M.
Maqsad		Epilepsiya va paroksizmal xolatlar zamonaviy bolalar nevrologiyasining muhim tibbiy va ijtimoiy muammosi bo'lib qolmoqda. Epileptologiya sohasini o'rganish bolalar epilepsiyasining fundamental yo'nalishdagi yangi konsepsiyalari va yutuqlarini kasallikning diagnostikasi, davosi va profilaktikasi bilan bog'liq holda amalga oshirishdan iboratdir. Dastur zamonaviy ilmiy va amaliy ishlanmalarni hisobga olgan holda tuzilgan va shifokorlarni epilepsiya va paroksizmal xolatlar bilan bog'liq bo'lgan nazariy bilimlarni chuqur o'rganish, ularning kasbiy vakolatlarini takomillashtirish va shu sohadagi bilimlarini		

	yangilash va chuqurlashtirishga qaratilgan.
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Statsionar, ambulatoriya muassasalari UASH va boshqa bolalar tor mutaxassislari
Sikl vazifalari	- mutaxassis bilimlarini epileptologiyaning zamonaviy yutuqlari bilan to'ldirish; - tinglovchilar tomonidan epilepsiya va paroksizmal xolatlarnig etiologiyasi, patogenezig oid bo'lgan bilimlarini yangilash; - kasalliklarni halqaro tasnifi bo'yicha epilepsiya va paroksizmal xolatlarni to'g'ri taxlil qilish va davlat standartlariga asoslangan xolda ularga tegishli bo'lgan tashxislash va davolash rejalarini mukammallashtirish; - favqulotdagi epileptik xuruj xolatlarida shoshilinch va tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish; - zamonaviy tibbiyotda bolalik davrida namoyon bo'ladigan epilepsiya va paroksizmal xolatlarni profilaktika va reabilitasiya muammolarini mustahkamlash; - epilepsiya diagnostikasi uchun elektroensefalografiya asoslari bo'yicha bilim va ko'nikmalarini mukammallashtirish.
Sikl tarkibi	1.MODUL: Bolalar epileptologiyasining zamonaviy imkoniyatlari va yo'nalishlari 2.MODUL: Bolalar epilepsiyaning klinik - diagnostik jihatlari va ko'rinishlari. 3.MODUL: Bolalarda noepileptik paroksizmal holatlarning klinik diagnostikasi 4.MODUL: Bolalar va o'smirlarda epilepsiyan davolashning zamonaviy imkoniyatlari va davolash standartlari 5.MODUL: Bolalar epilepsiyasi va paroksizmal holatlarning innovasion tekshirish usullari

O'qish bazalari

1. Shaxar 1 son bolalar klinik shifoxonasi

